

TOPONEGIZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

ЯЗЫКОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТОПОНЕГИЗА

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF TOPONEGIZ

Gadayev Oybek
Yaxshiboyevich¹

1.- O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Gadayev Oybek
Yaxshiboyevich
oybekgadayev76@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Samarqand viloyatining Ishtixon va Payariq tumanlaridagi ayrim joy nomlarining leksik va morfologik tadqiqi, joy nomlarining kelib chiqish tarixi, qaysi urug'larga mansubligi, joy nomlarining tuzilish jihatidan turlari haqida qisqacha ma'lumot berildi. Biz yashayotgan hozirgi makonda har narsaning nomi bor. Eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinmas zarrachalarning o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas. Nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir.

Kalit so'zlar. toponim, toponimiya, toponimika, onomastika etimologiya, so'zlashuv uslubi.

Аннотация. В статье дается краткий обзор лексико-семантического исследования некоторых топонимов Иштиханского и Паярыкского района Самаркандской области, истории происхождения и структурных типов топонимов, к каким племенам они принадлежат. В нынешнем пространстве, в котором мы живем, все имеет свое имя. От самых больших объектов до самых невидимых частиц есть свои названия. В этом мире невозможно существовать без имени. Название необходимо, чтобы отличать вещи и события друг от друга.

Ключевые слова. Топоним, топонимия, топонимика, ономастика, этимология, стиль речи.

Abstract. The article gives a brief overview of the lexical and semantic study of some toponyms in of Ishtikhon and Payarik district of Samarkand region, the history of the origin of place names, to which tribes they belong, the structural types of place names. In today's world which we live in, everything has a name. From the largest objects to the most invisible particles have their own names. It is impossible to exist in this world without a name. The name is necessary to distinguish things and events from each other.

Keywords. Toponym, toponymy, onomastics, etymology, style of speech.

Onomastika nomshunoslik sanalib, atoqli otlar nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanar ekan, mazmun jihatdan aynan unga mos kelishi va faqat nomlar obyektini nuqtayi nazaridan farqlanadigan toponimikaning bu soha doirasida qaralishi tabiiy. Garchi toponimika nom, atoqli ot sanalishi nuqtayi nazaridan onomastika doirasida qaralsa-da, o'ziga xos, alohida xususiyatlarga ham ega. Birinchidan, toponimika doirasida qaraladigan lug'aviy birliklar faqat geografik joy nomlarini atash bilan funksional chegaralanadi. Ikkinchidan, bu birliklar atama sanalishi jihatidan barcha onomastik birliklar bilan umumiylikni tashkil qilsa-da, yasaliş modellariga ko'ra muayyan farqlarga ega. Nomlanishning aniq bir obyektga ega bo'lishi, nomlanish jarayonida turli ekstralingvistik vaziyatlarning rol o'ynashi, toponimik yasaliş, garchi o'zbek tili so'z yasaliş qonuniyatlaridan oziqlansa-da, yana o'z yasaliş usullarining mavjudligi, so'zning apellyativ holatdan onomastik holatga o'tishidagi sotsiolingvistik omillar, nomlarning saqlanishidagi turg'unlik va beqarorlik kabi holatlar ana shu o'ziga xosliklardir.[1:11]Ular tarkibining o'zagini, yadrosini, so'zsiz,

tashkil etadigan toponegiz masalasida ilmiy dalillarga tayangan holda fikr-mulohaza aytib, turli misollar vositasida ularni talqin etib gapirish uchun, avvalo, hozirgacha ilmiy tadqiqot ishlarida amalda faol qo'llanilayotgan toponimik tushuncha va terminlarni hamda toponimik qonuniyatlarni yana bir marta ko'rib, e'tirof etib, e'tiborga olish kerak bo'ladi. Sababi, toponimlar toponimik qonuniyatlari zaminida vujudga kelgani kabi toponegizlar ham mana shu jarayon majmuida bir butun holatda voqelanadi.

S.A.Karimov va S.N.Bo'riyevning taniqli toponimist olim E.M.Murzayev [2:71]ning mahalliy geografik turdosh atamalarining hech qanday o'zgarishlarsiz atoqli otlarga aylanish qonuniyati haqidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli: "Ana shu qonuniyatga asoslaniladigan bo'lsa, ular bu jarayonda toponegizga aylanadi va o'ziga yangi mazmun kashf etgan holda toponimik tizimdan mustahkam o'rin egallaydi. Toponimik elementlar o'rtasidagi o'zaro semantik yaqinlik topoformantning toponegizga aylanishiga sabab bo'ladi. Masalan: *Nurak*, *Nurakli*, *Nog'orachi*, *Nurdum*, *Sovg'on*, *Sazag'on* kabi. Demak, toponimlarning vujudga kelishida tildagi *o'zak+qo'shimcha=morfemaga* teng keladigan *toponegiz+topoformant=toponegiz* jarayoni uzluksiz davom etib turadi. Topoformantlar "qotgan bo'lishi" yoki so'z tarkibida nol holatga kelganligidan qat'i nazar toponimlar etimologiyazatsiyasi davomida ularni ajratib tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi. Zero, toponimik birlikni grammatik jihatdan o'rganishning ahamiyati ham ana shunda"[1:35].

Toponegizlar majmuiga topoasos ham, topoformant ham, toponimik indikator (ya'ni geografik terminlar yoki toponimik aniqlagich) ham ishtirok etishi tabiiy holdir. Binobarin, joy nomlarining barchasi toponimlar hisoblanadi, ammo biz tadqiqotimizda Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponimlarning o'zagini tashkil etuvchi toponegizlarni alohida tahlil qilish maqsadini ko'zlaganmiz. Toponegiz asosga so'z yasovchi qo'shimchalar (topoformantlar) qo'shilib hosil bo'lgan toponimlardir. Asosga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilgandan so'ng negiz hosil bo'ladi. Masalan, *ish+chi > ishchi* –negizga aylandi. Topoasosga so'z yasovchi qo'shimchalar (topoformantlar) qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan toponimlarni toponegizlar desak bo'ladi. Masalan, *egar+chi > egarchi* – bu negiz. "*Egarchi*" Ishtixon tumanidagi qishloq nomi bo'lganda toponegiz nisoblanadi, chunki topoasosga topoformant qo'shish bilan apellyativ leksikada lug'aviy asos yasaladi va u toponegizga ko'chadi. *Tulkichi* (I.t., "Dagar Ochilov" MFY., ariq), *Sortoqchi* (I.t., "Zarband" MFY., q.), *Xatirchi* (I.t., "Ravot", "Azamat" MFY., ariq), *Chang'aroqchi* (P.t., "Birlashgan" MFY., q.), *Ayuvchi* (P.t., "Oytamg'ali" MFY., q.), *Buyrachi* (P.t., "Oqqo'rg'on" MFY., q.), *Kindikli* (I.t., "Xalqobod" MFY., tepalik), *O'roqli* (I.t., "Hazar bobo" MFY., tut), *Iyikli* (I.t., "Zarband" MFY., q.), *Qorag'o'yli* (I.t., "Qorag'o'yli" MFY., ko'cha), *Tarixli* (I.t., "A.Yuldoshev" MFY., q.), *Qashli* (I.t., "Ravot" mahallasidagi ariq), *Chumchuqli* (I.t., "Ravot" mahallasidagi ariq), *Taraqli* (I.t., "Ravot" MFY., qabriston), *Safoli* (I.t., "Xalqobod" MFY., guzar), *Tolli* (I.t., "Zarband" MFY., dara), *Qo'shali* (I.t., "Azamat" MFY., q.), *Qangli* (I.t., "Xalqobod" MFY., q.), *Chandalitepa* (I.t., "Qochar" MFY., tepa), *Ilonli* (I.t., "Chordara" MFY., jar) *Cho'michli*, *Oytamg'ali* (P.t., "Birlashgan" MFY., q.) *Alamli* (P.t., "Guliston" MFY., q.), *Bodomchali* (P.t., "Ko'lto'sin" MFY., q.) *Kindikli*, *Tuyoqli* (P.t., "Oytamg'ali" MFY., q.),

Chaparashli (P.t., “Chaparashli” MFY., q.), *Novali* (P.t. “Choshtepa” MFY., q.), *Jarlik* (I.t., “Xalqobod” MFY., jar), *Taqchalik* (I.t., “Zarband” MFY., guzar), *Tepalik* (I.t., “Dagar Ochilov” mahallasi tepalik), singarilar. *Oraliq* (I.t., “Xalqobod” MFY., yer), *Tuqayzor* (I.t., “Xalqobod” MFY., yer) *Olmazor* (P.t., “Guliston” MFY., bog‘) kabilar.

Bilamizki, “Nomshunoslik”dagi toponegiz masalasi bir o‘rinda gapirib ketiladigan darajadagi oddiy masalalardan biri emas, balki nomlanish jarayonlari va qonuniyatlari bilan doimiy bog‘liqlikdagi “O‘zbek nomshunosligi”ning hal qilinishi dolzarb bo‘lgan muammosidir [3:11]. Shu nuqtayi nazardan bu bobda quyidagi masalalarga to‘xtalish o‘rinlidir: 1) toponegiz haqida; 2) tadqiqotlarda toponegiz tushunchasiga munosabat; 3) toponegiz terminining bugungi kundagi talqini; 4) toponegiz terminini izohlashda toponimlashuv hodisasining o‘rni.

Albatta, bu ko‘rsatib o‘tilganlar muhim masalalar bo‘lgani uchun ularning har birini bobning bir bo‘limi sifatida o‘rganishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Nomlanish jarayoni va qonuniyatlari insonning suyak, tosh, temir qurollarni topib, tabiat hamda jamiyatda tubdan o‘zgarishlarni qila olganidek, narsa, hodisa, jonli va jonsiz buyumlarni bir-biridan farqlashlari uchun qo‘llaniladigan lingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, falsafiy, dialektik, geologik, geografik, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar majmui bo‘lgan tarixiy qonuniyatlarning bir butun ifodasi sanaladi. Shuning uchun ham turli ilmiy manbalarda xalqimizda kishilarning ismi, nisbasi, taxallusi, sharifiga, mamlakatimizning ayrim joylariga berilgan nomlar o‘sha joyga xos va mos bo‘lmaganligi ham tahlil, ham tanqid qilib yaratilgan maqollar uchrab turadi. Bunday jarayonni nom(lar)ga bo‘lgan e‘tibor va e‘tirofning ramziy ma‘nosidagi tabiiy hamda qonuniy hol deb bilib, quyidagilarni namuna sifatida keltirish mumkin: *Tentakka To‘y tepa bir qadam // Turkistonda qo‘y bir so‘m, Kela-kela o‘n bir so‘m // Bir ko‘ngil imorati - Ming Makka ziyorati // Fil tushida Hindistonni ko‘rar // Eshak Makkaga borib halol bo‘lmas // Gap desang, qop-qop, Ish desang, Ashtarxondan top.*

Ma‘lumki, tilda umumiy va maxsuslashgan lug‘atlarga xos bo‘lgan leksemalar tizimi bor. Umumiy lug‘at tarkibi kishilarning barcha aloqa munosabatlarida faol qo‘llanuvchi so‘zlar majmui bo‘lsa, ularda alohida tillarga xos bo‘lgan umumleksik qonuniyatlar amal qiladi. Nomlar uchun maxsuslashgan lug‘atlarning leksik tarkibi esa toponim va ,umuman olganda, nomlardangina tashkil topgan bo‘ladi. Ularda “Umumiy nomshunoslik”, shuningdek, uning ajralmas qismlaridan biri bo‘lgan toponimik qonuniyatlar amal qiladi. Shuning uchun ham ular bir-birlaridan qo‘llanish doirasi, me‘yori va miqyosi jihatlardan jiddiy tarzda farqlanadi. Shu sababli ham toponimlarning paydo bo‘lishi masalasi bir qarashda juda oddiy holga, ya‘ni ularda hech qanaqa qonuniyat yo‘qqa o‘xshaydi. Aslida esa, ularning ma‘no, mazmun-mundarijasida ota-bobolarimiz tomonidan ming-ming yillar davomida yaratilib, ularning orzu-umidlari, armon-u, dard-u alamlari, nafrati-yu muhabbati amalda qo‘llanilayotgan murakkab va bir-birini to‘ldiradigan toponimik qonuniyatlar majmuida yashirin holda yotibdi deyish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Ko‘pgina toponimlar til taraqqiyotining dastlabki davrida oddiy turdosh otlardan iborat bo‘lib, keyinchalik vaqt o‘tishi bilan ular atoqli otlarga – geografik

nomlarga aylanib ketgan, ya'ni toponimlashuv jarayonining barcha ko'rinishlari[4:256] asosida ular toponimlarga aylangan: *Amur, Jayhun, Ganga, Nil, O'kuz* va boshqalar (Ular oldin suv, soy, daryo, qo'rg'on, kent, ko'l, to'qay ma'nolarida bo'lgan)ni misol sifatida keltirish o'rinli.

2. Oddiy so'zlarga, shu jumladan, toponimlarga ularning xususiyatlarini ko'rsatuvchi toponimik aniqlovchilar qo'shilish yo'li bilan geografik nomlar hosil bo'ladi. Masalan, aniqlovchilar sifatdan, otdan, sondan, ravishdan, sifatdoshdan iborat bo'lgan so'zlar bo'lishi mumkin:

1) sifat turkumiga xos bo'lgan ba'zi bir so'zlarning topoasosga qo'shilishi bilan hosil bo'lgan toponimlar: sifat+ot: *Qoraqiya* (I.t., "Qo'rli" MFY., q.), *Ulug'qishloq* (I.t., "O'rtaqishloq" MFY., q.), *Kichikqumoq* (I.t., "Xalqobod" MFY., maydon), *Kartepa* (I.t., "Xalqobod" MFY., q.), *Yolg'izoyoq* (I.t., "Ravot" MFY., ko'cha), *Yo'g'ontepa* (I.t, MFY), *Yetimqiz* (I.t., "Haqiqat" MFY., qir), *Ko'rqishloq* (I.t., "J.Mahmudov" MFY., q.), *Ko'ktosh ota* (I.t., "Xalqobod" MFY., ziyoratgoh), *Ko'ktepa*, *Yangiqo'rg'on*, *Oqmachit*, *Ko'kterak*, *Qoradaryo* (I.t., q.) singarilar; *Oqchelak*, *Yaloqtepa* (P.t., "Guliston" MFY., q.), *Oqqo'rg'on* (P.t., "Birlashgan" MFY., q.), *Dovtepa*, *Yomonto'p*, *Chalaqarg'a*, *Yo'g'ontayoq*, *Qizilolma*, *Qizilquloq*, *Ko'rsafar*, *Tentakovul* (P.t., "Ko'lto'sin" MFY., q.) *Ko'ktepa*, *Qoraqalpoq*, *Yangirovot* (P.t., "Oytamg'ali" MFY., q.), *Qoraqipchoq*, *Oqqo'rg'on*, *Choshtepa* (P.t., "Oqqo'rg'on" MFY., q.), *Damariq*, *Qorabayir*, (P.t., "Sanoat" MFY., q.), *Qo'shtegirmon* (P.t., "Chaparashli" MFY., q.), *Ko'rmulla*, *Choshtepa*, *Sho'rtepa*, *Qoraxoni* (P.t., "Choshtepa" MFY., q.) *Kattasaydov*, *Qorakesak* (P.t., "O'rtasaydov" MFY., q.), *Moylitepa*, *Qorakamar* (P.t., "Qorasuv" MFY., q.) kabilar;

2) ot turkumiga xos bo'lgan so'zlarni bir-biriga qo'shish bilan shakllangan toponimlar: a) ot-ot: *O'rozboykandi* (I.t., "Xalqobod" MFY., kanal), *Ahmadbuloq* (I.t., "Xalqobod" MFY., kanal), *Qishband* (I.t., "Qiyot" MFY., q.), *Alpomishtepa* (I.t., "Haqiqat" MFY., tepa), *SaidMuqon* (quduq), *Anorboshi* (dala), *Mo'g'alto'p* (I.t., "Chordara" MFY., q.), *Qilchuvat* // *Qilchuvatariq* (I.t., "Azamat" MFY., ariq, ko'priq, buloq), *Ernazarqo'rg'on*, *Qozoqxo'ja* (P.t., "Birlashgan" MFY., q.) *Darvozagaza*, *Olloyorquduq* (P.t., "Guliston" MFY., q.), *Ko'lto'sin*, *Bekto'pi*, *Boqisoqi*, *Buloqboshi*, *Lolahovuz*, *Mirzaovul*, *Turkmanovul*, *Tuyatosh* (P.t., "Ko'lto'sin" MFY., q.) *Turkibolo* (P.t., "Oytamg'ali" MFY., q.), *No'g'oy ota*, *Qozoqxo'ja* (P.t., "Oqqo'rg'on" MFY., q.), *Yo'ltepa*, *Mullatoir*, *Sartovul*, *Mirhoshim*, *Sultong'oz*, (P.t., "Chaparashli" MFY., q.), *Jarboshi* (P.t., "Choshtepa" MFY., q.), *Farmonqul* (P.t., "O'rtasaydov" MFY., q.), *Mirzacho'l*, *Tohirshayx* (P.t., "Birlashuv" MFY., q.) va boshqalar; b) ot+ ot+ ot: *Iloniziyo'l* (I.t., "Haqiqat" MFY., yo'l), *Boshbegixo'ja* (P.t., "Birlashgan" MFY., q.) kabilar. v) ot+-chi: *Tulkichi* (I.t., "Dagar Ochilov" MFY., ariq), *Sortoqchi* (I.t., "Zarband" MFY., q.), *Egarchi* (I.t., "Chordara" MFY., q.), *Xatirchi* (I.t., "Ravot", "Azamat" MFY., ariq), *Chang'aroqchi* (P.t., "Birlashgan" MFY., q.), *Ayuvchi* (P.t., "Oytamg'ali" MFY., q.), *Buyrachi* (P.t., "Oqqo'rg'on" MFY., q.) singarilar. g) ot+li: *Kindikli* (I.t., "Xalqobod" MFY., tepalik), *O'roqli* (I.t., "Hazar bobo" MFY., tut), *Iyikli* (I.t., "Zarband" MFY., q.), *Qorag'o'yli* (I.t., "Qorag'o'yli" MFY., ko'cha), *Tarixli* (I.t., "A.Yuldoshev" MFY., q.), *Qashli* (I.t., "Ravot" mahallasidagi ariq), *Chumchuqli* (I.t., "Ravot" mahallasidagi ariq),

Taraqli (I.t., “Ravot” MFY., qabrison), *Safoli* (I.t., “Xalqobod” MFY., guzar), *Tolli* (I.t., “Zarband” MFY., dara), *Qo‘shali* (I.t., “Azamat” MFY., q.), *Qangli* (I.t., “Xalqobod” MFY., q.), *Chandalitepa* (I.t., “Qochar” MFY., tepa), *Ilonli* (I.t., “Chordara” MFY., jar) *Cho‘michli*, *Oytamg‘ali* (P.t., “Birlashgan” MFY., q.) *Alamli* (P.t., “Guliston” MFY., q.), *Bodomchali* (P.t., “Ko‘lto‘sin” MFY., q.) *Kindikli*, *Tuyoqli* (P.t., “Oytamg‘ali” MFY., q.), *Chaparashli* (P.t., “Chaparashli” MFY., q.), *Novali* (P.t., “Choshtepa” MFY., q.) va boshqalar; d) ot+-cha: *Bulbulcha* (I.t., “Fayziobod” MFY., bog‘cha), *Olmacha* (I.t., “Xalqobod” MFY., tepa), *Tepocha* (I.t., “Ravot” MFY., tepalik) *Quduqcha* (P.t., “Ko‘lto‘sin” MFY., q.) kabilar. i) ot+-lik: *Jarlik* (I.t., “Xalqobod” MFY., jar), *Taqchalik* (I.t., “Zarband” MFY., guzar), *Tepalik* (I.t., “Dagar Ochilov” mahallasi tepalik), singarilar. ye) ot+-liq: *Oraliq* (I.t., “Xalqobod” MFY., yer) kabi; yo) ot+-lar: *Qizlar* (I.t., “Haqiqat” MFY., tepa) singari; j) ot+-zor: *Tuqayzor* (I.t., “Xalqobod” MFY., yer) *Olmazor* (P.t., “Guliston” MFY., bog‘) kabilar. z) ot+-ki: *Chillaki* (I.t., “Haqiqat” MFY., ziyorat), *Soyaki* (I.t., “Qo‘rli” MFY., uzumzor) va boshqalar.

3) son turkumiga xos bo‘lgan so‘zlarni bir-biriga qo‘shish bilan yuzaga kelgan toponimlar: a) son+ot: *Uchkunchak* (I.t., “Dagar Ochilov” MFY., dala), *Uchyol* (I.t., “Azamat” MFY., yo‘l), *Yettiterak*, *Qirqyigit* (I.t., “Azamat” MFY., q.), *Qirqqiz* *Beshterak*, *Beshqayrag‘och*, *Uchtom*, (I.t., “Haqiqat” MFY., qir), *Beshbegi*, *Beshxo‘ja*, *Qirqovul* (P.t., “Birlashgan” MFY., q.), *Beshkapa* (P.t., “Oytamg‘ali” MFY., q.), *Yettiurug‘*, *Qirqovul* (P.t., “Sanoat” MFY., q.), *Qirqsaydov* (P.t., “O‘rtasaydov” MFY., q.), *To‘rtko‘l* (P.t., “Birlashuv” MFY., q.) va boshqalar; b) son+ot+-li: *Qirqqozonli* (I.t., “Azamat” MFY., q.) singarilar.

4) a) ot+fe‘l: *Kampiro‘ldi* (P.t., “Sanoat” MFY., q.), *Otuchdi* (P.t., “Oytamg‘ali” MFY., jarlik), *Xo‘jabaqirgan* (I.t., “Haqiqat” MFY., tepa); b) fe‘lning ravishdosh va sifatdosh turlariga xos bo‘lgan so‘zlarni bir-biriga qo‘shish bilan shakllangan toponimlar: ravishdosh+ot: *Qaynarbuloq*, sifatdosh+ot: *Baqirg‘ontepa*, *Kuyganyor* (I.t., “Haqiqat” MFY., tepa), va boshqalar; v) fe‘l + ma: *Ko‘tarma* (I.t., “Ravot” MFY., ko‘prik); g) fe‘l+ ish: *Qo‘shilish* (P.t., “O‘rtato‘sin” MFY., q.) kabilar.

5) toponimik nomlarning bir obyektidan ikkinchi, ba‘zan uchinchi, to‘rtinchi obyektlarga ko‘chishi natijasida yangi joy nomlari paydo bo‘ladi: *Ishtixon qishloq* → *Ishtixon tuman* → *Ishtixon qabrison* → *Ishtixon yo‘l* → *Ishtixon tepa* → *Ishtixon ariq*; *Mitan urug‘* → *Mitan qishloq*; *Payariq ariq* → *Payariq tuman* → *Payariq bozor*.

Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, toponegiz masalasi haqida gapirganda mamlakatimiz toponimlari tizimida faol qo‘llanayotgan toponimik qonuniyatlarni ham e‘tiborga olish kerak, chunki ular ancha bahsli masalalardan biridir. Sababi:

1. Toponimlardagi toponegizlarda grammatik jarayon ro‘y berishi tabiiy bo‘lgani holda, ular amalda bo‘ladigan ikkilamchi holatdadir. Ulardagi birlamchi holat ma‘noli qismlarning birikishi va toponimik ma‘noni anglata olishidir.

2. Mamlakatimiz toponimlari tizimida toponimik qonuniyatlar asosida toponim hosil bo‘lishi ko‘proq kuzatiladi. Demak, toponimik qonuniyatlar kuzatilib, ilmiy tahlil qilingan vaqtda toponegiz masalasiga e‘tibor qaratish vaqti keldi. Chunki toponegiz ham toponimik qonuniyat amal qilgan vaqtdagina voqelanadi. Aks holda, toponegiz to‘g‘risida gapirib ham bo‘lmaydi.

U toponimning paydo bo'lishi, yasalishi, shakllanishi kabi uzviy jarayonlarga shakl va ma'no jihatlaridan jiddiy tarzda uzviy holatda bog'lanib ketadi. Bu yerda keltirilgan toponimning paydo bo'lishi, toponimning yasalishi, toponimning shakllanishi terminlari bir-birini taqozo qiladigan terminlar sanaladi.

P. G'ulomov, M.T.Mirakmalovlar toponimning paydo bo'lishini quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatib o'tishgan[5:17-23]:

1.Joylarning geografik joylashish o'rniga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar – toponimlar.

2.Ayrim geografik nomlar o'sha joyning, geografik obyektning o'ziga xos xususiyatlaridan paydo bo'ladi.

3.Suv, suv inshootlari bilan bog'liq bo'lgan nomlar (gidronimlar).

4.O'simliklarga bog'liq nomlar (fitonimlar-fitotoponimlar).

5.Hayvonlarning nomi bilan bog'liq joy nomlari (zoonimlar-zootoponimlar).

6.Foydali qazilmalarga bog'liq bo'lgan joy nomlari, neft, gaz, toshko'mir konlarining nomlari.

7.Xalq, qabila, urug'larning nomlari bilan shakllangan toponimlar (etnonimlar-etnotoponimlar).

8.Aholining kasb-hunariga bog'liq holda shakllangan nomlar.

9.Shaxslarning ismi-shariflari, taxalluslariga qo'yilgan geografik nomlar (antroponimlar-antropotoponimlar).

10.Afsonaviy va diniy mazmunda hosil bo'lgan nomlar, ya'ni muqaddaslashtirilgan toponimlar.

11.G'aroyib tarzda shakllangan nomlar (diniy-ilohiy nomlar).

12.Zamonaviy nom qo'yish talablari vositasida yuzaga kelgan yangi tip va turdagi nomlar.

Tadqiqotlardan shu narsa ayon bo'lib turibdiki, xususan, Qo'chqortoyev ilmiy ishlarida so'zlarning leksik-semantik to'dalari[6:136] haqida maxsus to'xtalgani kabi to'plangan davlatimiz hududidagi toponimlar majmuini ham leksik-semantik jihatdan guruhlarga bo'lish mumkin bo'ladi.

Toponimlarni bir butun tizim sifatida ekanligini e'tirof etgan holda ularni leksik-semantik jihatdan ham o'rganib, ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq sanaladi. Ularni tizim sifatida o'rganilganda ularning ma'nolari-yu so'zligiga ham e'tibor qaratiladi, bu esa tizimlilikni o'zida aks ettiradi. Bunday tarzda toponimlarni ikki guruhga bo'lib o'rganishni T.Enazarov ilgari surgan va ham ilmiy, ham amaliy jihatlaridan asoslab bera olgan [7:26]:

1. Joy nomlarining qanday va qaysi tipdagi toponimik obyektlarning nomlari ekanligiga ko'ra turlari. Bu guruhga gidronim, oronim, oykonim, agroonim, paraggonim, dromonim, yer osti joy nomlari kabilar.

2. Joy nomlarining kelib chiqishi va nomlanish xususiyatlariga ko'ra tasnifining turlari. Ushbu tasnifga ko'ra quyidagilar oiddir: etnotoponimlar, antrotoponimlar, fitotoponimlar, sostoponimlar, ko'chma joy nomlari, geotoponimlar, professionalizmlar asosida yuzaga kelgan joy nomlari, muqaddaslashtirilgan joy nomlari, zootoponimlar."

Yuqoridagilar bilan birga yana toponegizlarga munosabat bildirishda ularning bir butunligini o'zida jamlagan toponimning yozilishi ham, ya'ni imlosi masalasi asosiy e'tiborda bo'lishi shart. Ularning to'g'ri yozilishi [5:23-27], tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlar[8:120] to'g'risida H.Hasanov, F.G'ulomov, M.Mirakmalovlarning asarlarida to'xtalangan. Toponegizlar majmuida topoasos ham, topoformant ham, toponimik indikator (ya'ni geografik terminlar) ham ishtirok etadi. Bu o'rinda geografik terminlarga qo'yiladigan talablarga[5:38] to'xtalish kerak:

1. Terminlar ilmiy va etimologik jihatdan to'g'ri bo'lishi kerak.
2. Terminlar ko'pchilikka tushunarli, aytishga oson, ixcham, tugal ma'noli bo'lishi kerak.
3. Ular o'zbek tilining imlo va talaffuz normalariga mos bo'lishi kerak.
4. Terminlar lug'at boyligi, qotib qolgan emas.

Xullas, toponimlarning o'zagini, yana ham aniqrog'i, yadrosini tashkil etadigan toponegiz masalasida fikr-mulohaza aytish uchun ilmiy ishlarda qo'llanilayotgan topoasos, toponimik indikator, topoformant singari bir qancha toponimik tushuncha va terminlarni, toponimik qonuniyatlarni e'tiborga olish kerak. Chunki toponimlar toponimik qonuniyatlari zaminida vujudga kelgani kabi toponegizlar ham mana shu jarayon majmuida voqelanadi.

Umumiy lug'at tarkibi kishilarning barcha aloqa munosabatlarida faol qo'llanuvchi so'zlar majmui bo'lgani uchun ularda umumleksik qonuniyatlar amal qiladi. Nomlar uchun maxsuslashgan lug'atlarning tarkibi esa toponim va nomlardangina tashkil topadi. Shuning uchun ular bir-biridan qo'llanish doirasi, me'yori va miqyosi jihatlardan jiddiy tarzda farqlanadi. Aks holda, toponimlar o'zlarining nomlik mavqelarini, xususiyatlarini ifodalay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov S.A., Bo'riyev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 11.
2. Мурзаев Э.М. Местные географические термины, в кн.: «Транскрипция географических названий». М., 1960, –С.71.
3. Enazarov T. Nomshunoslik masalalari. – T., 2010. – B. 11.
4. Enazarov T.J. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari: Filol. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2006. – 256 b.
5. P.G'ulomov, M.T. Mirakmalov. Toponimika va geografik terminshunoslik. – T., 2005. – B. 17-23.
6. Qo'chqortoyev I. So'zlarning leksik-semantik to'dalari haqida // ToshDU ilmiy asarlari. 359-chiqishi. – T., 1969. – 136 b.
7. T. Enazarov. O'zbekiston toponimikasi nomli maxsus kursni o'qitish metodikasi. – T., 1999. – B. 26.
8. Hasanov H. Geografik nomlar siri. – T., O'zbekiston, 1985. – 120 b.